



PEDAGOGIK INNOVATIKANING PAYDO BO`LISHI VA RIVOJLANISH SHART-SHAROITLARI

Xayrullina P.F.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o`qituvchisi

Tayanch soʻzlar: pedagogik innovatika, taʼlim tizimi, zamonaviy talablar, rivojlanish tendensiyasialari, fan va texnika, innovatsion jarayonlar, yuqori malakali pedagoglar, innovatsion salohiyat, novatorlik va yangilik.

Ключевые слова: педагогические инновации, система образования, современные требования, тенденции развития, наука и технологии, высококвалифицированные педагоги, инновационные процессы, инновационный потенциал, инновации и инновации.

Key words: pedagogical innovations, education system, modern requirements, development trends, science and technology, highly qualified teachers, innovative processes, innovation potential, innovation and innovation

РЕЗЮМЕ:

Maqolada taʼlim tizimidagi pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanish tendensiyalarining paydo boʻlishi va rivojlanish yoʻnalishlari oʻrganilib, ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati yoritilgan. Modernizatsiyalashgan taʼlim tizimida innovatsiyalarni keng qoʻllash boʻyicha tavsiyalar taqdim etiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается возникновение педагогических инноваций в системе образования, возникновение тенденций развития и необходимость их внедрения на практике. Будут представлены рекомендации по широкому применению инноваций в модернизированном образовании.

SUMMARY:

The article examines the emergence of pedagogical innovations in the education system, the emergence of development trends and the need for their implementation. Recommendations for broad application of innovation in modernised education will be presented.

Zamonaviy jamiyat oʻzining tezkor va chuqur oʻzgaruvchan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu Oʻzgarishlar jamiyat tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiya oʻrtasidagi munosabatlar, demografik siyosat va urbanizatsiya jarayonlarida yaqqol namoyn boʻlmoqda. Taʼlim esa global jamiyatning tarkibiy qismi sifatida ushbu oʻzgarishlarning barchasini hisobga olib, oʻz faoliyati va mazmunini qayta shakillantirishi zarur.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyat rivojlanishidagi tezkor o'zgarishlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ta'lim jarayonida qo'llaniyotgan texnaogiyalar zamonaviy talablarni to'liq qondira olmayotgani xaqida ko'plab muxokamalr mavjud. Chunkita'limning asosiy vazifasi jamiyatni ijtimoiylashtirish jarayniga xissa qo'shish va uni rivojlantirishdan iboratdir. Ammo ta'lim tizimining o'zgaruvchan jamiyat sharoitida yetarli darajada samaradorlik bilan ishlashi uchun yana ko'p isloxohtlar zarur.

Ta'limni zamon talablariga moslashtirish, nafaqat ta'lim tizmining o'z o'rnini mustahkamlashi, balki jamiyatning kelajakda barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim shartidir. Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Ma'lumki bugungi kunda barcha davlatlar ta'lim tizimiga iloji boricha ko'proq yangiliklarni joriy etishga intilmoqda bugungi yangiliklar ularga moslashishni rejali va ommaviy yondashshni talab qiladi. Yangiliklar kelajak uchun o'zoq muddatli investitsiya sanaladi. Novatorikka qiziqishni shakillantirish, yangilik yaratishga intiluvchi shaxslarni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi unda ijodkorlik ruhi va muhiti ustuvorlik qilishi zarur. Ana shunday dolzarb masalalardan kelib chiqqan xolda bugungi kunda pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida pedagogic innovatsiyalar jadal rivojlanmoqda.

Novvatorlik va yangilik madaniyat, ta'lim va jamiyat rivojlanishining ikki muhim jixati xisoblanadi. An'analar va yangiliklar o'rtasidagi xilmal munosabatlar asosida jamiyatni an'anviy va zamonaviy nuqtai nazaridan rivojlantirish dolzarb axamiyat kasb etadi.

Innovatsiya tushunchasi bundan 100 yil oldin madaniyatshunoslik va lingvistikada madaniy "diffuziya" yani bir madaniyatni boshqa hududga yoyish jarayonida paydo bo'lgan.



Pedagogik innovatikaning metodologiyasini pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llash haqidagi ta'limotning tuzilishi va o'zlashtirilishiga xos bilim va faoliyat tizimi tashkil etadi.

Pedagogik innovatikaning nazariy bloklari Pedagogik neologiya (ilmiy-pedagogik jarayon, uning o'ziga xosliklari va asosiy natijalari haqidagi ilmiy va tajribaviy ma'lumotlar tizimlashtiriladigan pedagogikadagi yangilik haqidagi ta'limot).

Qiyosiy pedagogik aksiologiya (pedagogika nazariyasi va amaliyotida yuzaga keladigan pedagogik yangiliklarni baholash va o'zlashtirishning o'ziga xosliklarini ochib beruvchi fan).

Innovatsion praksiologiya (pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo'llashni o'zlashtirish).

Pedagogik innovatikaning asosiy tushunchalari:

- innovatsiya;
- pedagogik yangilik, yangilik kiritish;
- innovatsion jarayon;
- innovatsion faoliyat;
- innovatsion salohiyat.

Odatda, yangilanish tushunchasi ta'limda ko'pincha o'zgartirish tushunchasi bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. Agar ushbu o'zgarish keng qamrovli bo'lsa va butun ta'lim tizimini o'z ichiga olsa, unda bu "islohot" deb ataladi. Lekin barcha o'zgarishlarni yangilik deb xisoblash to'g'ri emas. Chunki yangilik o'zida avvaldan belgilangan maqsadlarni yangilashni ko'zda tutadi.

Pedagogik innovatsiyaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning ichki rivojlanish jarayoniga bog'liqdir. Pedagogik yangiliklar nafaqat g'oya, uslub yoki texnologiyalarning taqdim etilishi bilan chegaralanadi, balki u innovatsion jarayoning yaxlit va mustaqil bir qismi sifatida ta'lim- tarbiyamuammolarini samarali hal etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Innovatsiya esa-bu malum bir bosqich asosida rivojlanadigan jarayon bo'lib, qo'yidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi:

- Innovatsiya bu - ta'limning yangi mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish.
- Yaratilgan pedagogik tizimni joriy etish va ommalashtirish.
- Ta'lim muassasasini boshqarish va rivojlantirishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish.
- Tajriba-sinov ob'ekti sifatida.
- Yaxlit pedagogik jarayonni innovatsiyalash.



• Yangiliklarning qo'llanilish darajasini yangi mahsuldorliklar bilan o'zgartirish bosqichi.

Ta'lim sohasidagi mavjud yoki yangi ehtiyojlarni qondirish uchun pedagogik yangiliklarni yaratish, joriy etish, o'zlashtirish va foydalanishga doir faoliyat innovatsion jarayondir.

Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'ay boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi qo'llanilayotgan me'yoring mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga keluvchi majmual muammolarning yechimiga qaratilgan faoliyatdir.

Innovatsion salohiyat deganda, pedagogic jamoaning va yaxlit holda pedagogic faoliyatning yangiliklarni amaliyotga joriy qilishga tayyorligi tushuniladi. Bu tushuncha ikki xil manoda talqin etiladi: keng manoda-ta'lim muassasining innovatsion salohiyati; tor manoda esa o'qituvchining shaxsiy innovatsion salohiyati.

Ta'lim muassasining innovatsion salohiyati deganda, uning o'z-o'zini rivojlantirishga, ta'lim jarayonida yangi metod va texnologiyarni qo'llashga tayyorligi tushuniladi. Shaxsning innovatsion salohiyati esa uning o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ijodiy va madaniy kompetensiyalariga ega ekanligini ifodalaydi. Bundan tashqari pedagogning faoliyatini takomillashtirishga tayyorligi va buning uchun zarur ichki vositalar hamda metodlarning mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik innovatsiyalarni ta'lim tizimida keng qo'llash ta'lim samaradorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, shuningdek, ta'lim standartlariga mos bilim va malakalarni shakillantirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Garantov: Aldasanova I.R. Buzladzhak ukiguvchilarni tayorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012.
2. Khutorskoy A.V. Pedagogical Innovation: Methodology, Theory, Practice: Scientific Edition. – Moscow: Publishing House of the UNC DO, 2005.
3. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: O'quv qo'llanma. - T.: Iktisodiyot, 2012.
4. Rakova N.A. — Pedagogicheskaya innovatika: Uchebno-metodicheskoe posobie [Pedagogical innovation: Teaching aid]. Vitebsk: Publishing House of the Voronezh State University named after P. M. Masherov, 2011. 72 p. (In Russian)
5. Khairullina Parizod Fargat kizi Development of Academic Mobility Competencies in Future Pedagogues in the Conditions of Educational Cluster European Journal of Life Safety and Stability <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/1082> 195-197 p.
6. Khairullina Parizod Fargat Kizi Goals and objectives of the application of the system of academic mobility in higher educational institutions <https://doi.org/10.5281/zenodo.13839828>